

Odilov Og‘abek

TDSHU Yaponshunoslik fakulteti

2-kurs talabasi

Annotasiya: *Bu maqola Abdurrahman Jomiy qalamiga mansub bo‘lgan “Yusuf va Zulayho” dostonining tarjimasidagi mohirona harakatlar va badiiy iste’dod sohibi bo‘lgan Muhammad Rizo Ogahiyning qanchalik zukko ekanligi haqida. Yusufnomalar ichida Abdurrahman Jomiyning bu dostonni tengsizligi, uni forsiychadan tarjima qilinganligi va albatta u haqidagi qizg‘in mulohazalar to‘g‘risida gap boradi.*

Kalit so‘zlar: *Tarjima, mulohazalar, badiiy mahorat, doston, Rahmoniy ishq, foniy ishq, badiiy obraz.*

Nima uchun Ogahiy Abdurrahman Jomiyning “Yusuf va Zulayho”sini tanladi degan savol tug‘ilishi mumkin. O‘sha davrda Yusuf alayhissalom haqida juda ko‘p asarlar bor edi. Chunki Jomiyning bu dostoni juda mulohazalarga boy, badiiy mahorat bilan yo‘g‘rilgan, ma’noviy jihatdan ham ancha teran. Bu haqida ayrim fikrlar ham bor:

Masalan, professor Najmiddin Komilovning: “Bu ajoyib dostonni Jomiy ijodining cho‘qqisi desak, yanglishmaymiz. Jomiydan keyin bu asarga o‘nlab javoblar yozilganini (Jumladan, o‘zbek shoirlari tomonidan ham) aytish kifoya” – degan xulosasi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Shu sababdan asar XIX asrda tarixnavis va shoir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Abduraxmon Jomiy ishq haqida ancha chuqur ma’lumot eta edi. Ayniqsa, Rahmoniy ishq haqida. U umrining oxirigacha Allohga shukur qildi, bu ishq uni qalbini pokladi, foniy ishq esa insonni devona qilishi, shahroniy va shaytonning xislarini uyg‘otishi haqida ayrim asarlarida keltirib o‘tadidi. “Yusuf va Zulayxo” asari Qur’oni karimdagi Yusuf alayhissalom qissasi asosida ijod etilgani ma’lum. Tabiiyki, Abdurahmon Jomiy ijodiy niyatidan kelib chiqib, ushbu qissa mazmunini o‘ziga xos badiiy talqin egan. Jomiy talqini tarjimada Ogahiy tomonidan ijodiy qayta ishlangan deb o‘ylayman.

Xiva xonligi davrida albatta tarjimalarda alohida e’tibor berilgan. Chunki xonning o‘zi moliyalashtirish ishlarini olib borgan. Muhammad soniy (Feruz) talabi va iltimosiga ko‘ra Muhammad Rizo Ogahiy hijriy yil (albatta xonlik musulmon davlatlaridan biri bo‘lganligi bunga sabab) 1285-yil milodiy 1869-yilda o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Sharq mumtoz adabiyotida bir asarni boshqa tilga shunchaki tarjima qilib qo‘yilmaydi. Unga qaytadan jon baxshida etiladi, ya’ni ijodkor o‘zi bilmagan holda asarning yangi qirralarini ochadi. Ogahiy fors tilini jonidan ortiq ko‘rganligi bois tarjima qilingan

asarlarning yarmidan ko‘pi fors tilidagilardir. Bu dostonni tarjima qilish ham ancha ko‘p mehnat talab qildi. Tarjimani tugatishi haqida quyidagi baytlarni keltirib o‘tadi:

Bu nodir nusxai farxunda anjom,
Muborak soat ichra topdi anjom.
Yili hijratdin erdi bekamu besh,
Ming ikki yuz ham sakson besh⁸

Ushbu tarjima asosida asarlar yaratish 20-asrda ham davom etdi. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziy “Qiroat” kitobida bu qissani sodda til bilan Ogahiy tarjimalaridan foydalanish orqali, xalqqa bu asar haqida ancha zo‘r ma‘lumotlarni yetkazib berga debaytish mumkin. Jomiyning “YU. va 3.” asari 19-asrda Ogahiy tomonidan tarjima qilinishi tarjimashunoslikni yana bir pog‘onaga ko‘tardi. Bundan tashqari G‘arb adabiyoti ham Yusufnomalikka murojaat qilgan. Masalan nemis yozuvchisi Manning “Yusuf va uning akalari” tetralogiyasi, asarning keng tarqalishi va shuhrat qozonishiga asosiy sabab uning mazmunmohiyatidagi muhabbat talqinidir. “Qissai Yusuf alayhissalom” yoki “Qissai Yusuf payg‘ambar” deya turlicha nomlanishiga va turli davrlarda, turli ijodkorlar tomonidan yozilishiga qaramay, unda Rahmoniy ishq bilan foniy ishq kuylanishi bilan o‘zgachadir. Shuningdek bu asarlarda ezgulik va fidoyilik, mehr-oqibat, sadoqat, nafs, sufiyona ishq bilan yo‘g‘rilgandir. Yana sermahsul ijodkor Durbek (14-asr oxiri — Balx — 15-asr boshi — Temuriylar davri o‘zbek shoiri) ham bu borada ancha ko‘p ishlar qilgan. 1409-yilda “Yusuf va Zulayho” ning yangicha usulda yozib tugallaydi. Umuman, davrlar o‘tishi bilan “Yusuf va Zulayho” dostoni asosida yaratilgan asarlarda o‘z davrining turli axloqiy va falsafiy qarashlari, ijtimoiy va siyosiy tushunchalari, o‘sha davr muhitida o‘z aksini topib borgan.

Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan asar syujetiga asliyatda bo‘lmagan biror obraz yoki detal qo‘shilmaydi. Mumtoz badiiy tarjimada esa asliyat matniga ancha erkin yondashilgan. Tarjimon asliyat matniga nafaqat obraz yoki detal, hatto butun boshli boblarni ham qo‘shishi, syujetdagi ayrim talqinlarni qisqartirishi, ijodiy niyatidan kelib chiqib o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan. Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” dostoni tarjimasi ayni shu xususiyati bilan alohida ajralib turadi.⁹

Professor Nurboy Jabborov fikricha: “Tahlillar asarning aynan so‘zma-so‘z tarjima emas, balki erkin yondashuv asosida yaratilganini ko‘rsatadi. Asardagi lirik kechinmalar, Muhammad Rahimxonni soniyga bag‘ishlab alohida bob ajratilishi kabi xususiyatlar shunday xulosa chiqarishga asos beradi”

Xulosa qilib aytganda Muhammad Rizo Ogahiy Xiva xonligi davrida madaniyat va ma‘rifatni yana bir pog‘onaga ko‘tarib berdi. Uning bu harakatlar Muhammad Rahimxon (Feruz) tomonidan ancha yaxshi rag‘batlantirib boriladi. Muhammad Rizo Ogahiy “Yusuf va Zulayho” bu tarjima qilishiga sababchi ham Feruz edi. Sufiyona ishq targ‘ib qilingan bu asr ko‘p asrlar davomida turkiy xalqlar uchun tushunarsiz bo‘lib

⁸ D. Jumayeva “Yusuf Va Zulayxo” dostonining Ogahiy tarjimasiga doir ayrim mulohazalar” maqolasidan.

⁹ D. Jumayeva. “Yusuf va Zulayxo” dostonining Ogahiy tarjimasiga doir ayrim mulohazalar” maqolasidan.

kelgan edi. Qiyinchiliklarga qaramasdan bu ishni qilishni epladi. O'sha davrda Ogahiy shakarlang holiga qaramasdan ijodini davom ettirdi. Qalbini Ollohga bo'lgan ishq bilan to'ldirilganligi, ko'ngli pokligi, ijodi bilan butun umrini bog'laganligi tahsinga sazovordir. Yusuf ham huddi Ogahiydik yolg'iz qoladi. Bu haqida Qur'oni karim, Tavrot, Injilda bayon etilgan. Folklorga yaqini Injilda bayon etilib, Misrga bog'lanadi. Unda Yusuf alayhissalomni Misrga qul qilinib, fir'avnlarning yahudiy qavmiga qilgan zulmi aks etgan. Qur'onda esa bu qissaga "eng go'zal qissa" deya ta'rif berilgan. Biz hozirda bu asarni elektron variantlarini bemalol topishimiz mumkin. Lekin 19-asrda hozirgi texnologiyalar bo'lmagan. Bu asarga qiziqqan toliblar Ogahiyning tarjimasidan unumli foydalangan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Vikipediya ma'lumotlari.
2. Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'рни. T.: 2020-yil.
3. N. Jabborov. Abdurrahman Jomiyning "Yusuf va Zulayho" asari turkiy tarjimasiga oid mulohazalar. Abdurrahman Jomiy-Toshkent.
4. Abdurrahman Jomiy. Yusuf va Zulayho. T.: Tasvir-2018.
- 5.